

# TONG yulduzi

№ 7  
(66444)

2004 yil 16 fevral  
dushanba

Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiqa  
boshlagan

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOY HARAKATI.

## KIMYODAN «2»CHI MENDELEYEV..

Meni bir savol doim qiynaydi. Mutaxassis sifatida ham, oddiy inson sifatida ham juda past bilim olib, maktabni bitirayotgan o'quvchilar hayotda nimaga erishadi? Hatto o'z oilasini to'liq ta'minlay olmaydiganlar boshqalar uchun nima qilib bera oladi? Bugun turli joylarda har xil bahonalar bilan darsga kirmay yurganlar ertaga qorin to'yg'azish uchun ham pul topolmay qolganda, o'zini qanday ishlarga urishi mumkin?

«Men yetolmagan orzularga farzandim yetsin», deya otana ko'nglida bir ilinj bilan yashaydi. Qolgani bolaning tirishqoqligiga bog'liqdir. Har bir inson ham buyuk ishlarga qodir.

...Nyu-Yorklik oddiy bank xodimi Sidney Porter xotini kasal bo'lib qolganida bank pulidan olib ishlatadi. Afsuski, xotini tuzalmay, vafot etadi. Shunday kunlarda bankka tekshiruvchilar keladi va kamomadni aniqlaydi. Kamomadni to'lashga puli yo'q Sidney Porter qamoqqa tushib

qoladi. Uyida esa 5 yoshli qizchasi yolg'iz o'zi qoladi. Shu qizchani pul bilan ta'minlab turish uchun Sidney Porter O' Genri taxallusi bilan kichik-kichik hikoyalar yoza boshlaydi va pochta orqali gazetalarga yuboradi. Qalam haqini esa gazeta muharrirlari uning qiziga jo'natib turishadi. Umrida biror maqola ham yozmagan oddiy hisobchi farzandini saqlab qolish uchun jon fido qilib ishlaydi. Yillar o'tib, qamoqdan chiqqanida endilikda mashhur bo'lib ketgan yozuvchi O' Genri xalq darvoza oldida gullar bilan kutib oladi.

Bunday misollar juda ko'p... Uchuvchi Aleksey Maresyev ikki oyog'i kesilgach, yog'ochdan oyoq qildirib, yana uchuvchi bo'lib jang qiladi. Qulog'i kar bo'lib qolgan Betxoven esa fortepyano trostini tishlab turib, kuyni tishlari orqali eshitadi va yanada kuchli asarlar yaratadi. Ko'zi ko'r, oyoq-qo'li

shol N.Ostrovskiy ham millionlab kishilarni maftun etgan kitoblar yozgan. Maktab davrida kimyo fanidan «2» baho olgan D.Mendeleyev astoydil o'qib, shu fanning yetuk olimi bo'ldi. Ikkala qulog'i kar bo'lgan, uning ustiga maktabda ham o'qimagan K.E.Siolkovskiy kosmosga uchuvchi raketalar loyihalari asosida uning loyihalari asosida keyinchalik raketalar qurildi...

Inson yetolmaydigan cho'qqi yo'q. Faqat tirishqoqlik va sabot bilan mehnat qilish va o'rganish kerak, xolos. Bizning bolalarimizga hamma imkoniyatlar yetarli. Faqat kattalar ularning ichki dunyosiga kirib borishga harakat qilishlari lozim. Nima qilsak ularda ilm-fanga, o'qish-o'rganishga so'nmas ishtiyoq uyg'ota olamiz? Balki bolalarning qalbiga yo'l, ularning shaxsiy manfaatdorligi orqalidir.

Lekin dunyoda ikkita qoida borki, ular barcha yutuqlarning asosiy omilidir. Bu - tirishqoqlik va doimiylik. Ya'ni, biron-bir ish bilan doimo kanda qilmay, tirishqoqlik bilan shug'ullanilsa, inson shu sohada cheksiz g'alabalarga erishsa bo'ladi.

«Boshqalar yengilgan joyda g'alabaga erishish - mening shiorimga aylandi», degan edi mashhur Sherlok Xolms.


Siz bunga nima deysiz?

Habibulla MIRZAABDULLAYEV,  
Namangan tumanidagi  
8- o'rta maktab o'qituvchisi.

Ustozga so'z

Ta'limdan oldin  
tarbiyani o'ylang. Pishiq  
bo'lmagan poydevorda  
imorat turmaydi.

## KO'KLAM SOG'INCHI



Sog'indingmi meni ariq chetida,  
Terilmay qolgan jambil, yalpizim.  
Ey, bahor shamoli, sog'inganmisan,  
Quchog'ingda varrak uchirishlarim?

Tog'lar aks-sadosi sog'ingandirsan,  
Qayta eshitish-chun qichqirishlarim.  
Ey, lola g'unchasi, qo'msadingmi hech,  
Barglaring siypalab aytgan kuylarim?

Sog'indingmi ko'k gilam yopingan zamin,  
Senga atab to'qilgan mening she'rlarim.  
Daraxtda osilib qolgan xalinchak,  
Qo'msading qush kabi parvoz etishni.

Ey, mening yo'qolgan qo'g'irchoqlarim,  
Sog'indim sizlarni yana ko'rishni.  
Sog'indim, mening chin dugonalarim,  
Sizlar ila yana yalpiz terishni.

Qo'msading sizlarni gullolalarim,  
Yaprog'ingiz silab qo'shiq aytishni.  
Yalpizlar terishga endi vaqt qayda,  
Endi uchirolmam seni varragim.


Ey, dala-yu qirlar ko'nglimda o'kinch,  
Sog'indim, sog'indim, sizni sog'indim.

Lobar AZIZXO'JAYEVA,  
Toshkent viloyati, Qibray tumanidagi  
30-maktabning  
7- «G» sinf o'quvchisi.



## SPORT DANGASALIKNI

### YOQTIRMAYDI



#### Kelajak qanotlari

«Jar» sport sog'lomlashtirish majmuasida boks va karate bo'yicha bolalar va o'smirlar o'rtasida «Jar» ochiq birinchiligi musobaqalari o'tkazildi. Unga yosh sportchilarning ota-onalari ham tashrif buyurishdi.

G'olib tengdoshingiz

Mirhabib Oripov! Uni shu ondayoq qarindosh-urug'lari, do'stlari va ustozlari qutlashdi. Ayniqsa, musobaqada qo'li baland kelgan farzandini ko'ksiga bosayotgan Dildora opaning quvonch yoshlarini ko'rsangiz edi, sizning ham g'olib bo'lingiz kelib ketardi.

Bundan hammadan ham uning amakisi quvondi, desam aslo yanglishmayman. Chunki jiyanining ringdan mag'rur bosh ko'tarib tushayotgan onlarini, yaqinlari bilan g'oliblik sururini zavq bilan ulashayotganligini ham video va magnit tasmlarga muhrlagan ham xuddi shu mehribon amakisi bo'ladi. Tahririyatga ham uning rasmlarini amakisi yetkazdilar.

Keyin esa...

Mirhabibni savolga tutdik.

-Tengdoshlaringiz o'rtasida sovrindor bo'lishni orzu qilganmidingiz?

-Albatta. Chunki ikki yildan buyon «Jar» sport markazida ochilgan boks mashg'ulotlariga qatnashib kelaman. Murabbiyim Burxon aka Sharopov yordamida shahar va Qozog'istonda o'tgan xalqaro musobaqalarda ham munosib birinchi o'rinni egalladim.

-Bugungi raqibingiz Sardor haqida nima deya olasiz?

-Jang davomida raqibimning kuchli ekanligini sezdim. U ham ancha o'ziga ishongan, boks usullarini puxta egallagan ekan. Final jangimdagi bu raqibim kuchli zarbalar va himoya vositasidan mohirlik bilan

foydalana oldi.

-Demak, o'zingizga mos raqib ustidan g'olib bo'libsiz-da, shundaymi?

-Ha, sportda g'oliblik va mag'lublik yonma-yon turadi. Ringda esa birgina zarba raqibga qo'l kelishi mumkin. Buning uchun eng avvalo bokschi himoya usuli muhim. Usullarning o'zgarishi, murabbiy yordamida ruhan tetiklanmoq ham o'zimizga ishonchni oshiradi.

-Boksda o'ng va chap qo'l zarbalari degan ibora bor. Siz ko'proq qaysi qo'lda zarbalar berasiz?

-Yurtimizning mashhur bokschisi Artur Grigoryan kabi chap qo'lim mening asosiy

zarbam hisoblanadi.

Har gal musobaqalardan g'olib bo'lib uyga qaytganimda hamma men bilan faxrlanganligini ko'rib, mashhur bokschi bo'lishni dil-dildan orzu qilaman. Nasib etsa yurtimiz sharafini Olimpiada o'yinlarida Olimpiada o'yinlarida himoya qilaman. Jahon chempioni bo'lish eng katta niyatimdir. Buning uchun tirishqoqlik, qat'iyatlik va mehnatsevar bo'lishim kerak. Sport aslo dangasalikni yoqtirmaydi. Tinimsiz mashg'ulotlarda chiniqish sportchining asosiy vazifasidir.

Ma'mura  
YIGITALI qizi.





yetaklab yurishga vaqt topadilar. Buning uchun ulardan juda minnatdorman. Yaqinda O'zbekistondagi Koreya elchixonasiga, «Baynalminal markazi»ga, Bolalar uylariga borib, konsertlar qo'yib berdik...

-Anvarjonni onasi 5 yoshligida musiqa maktabimizga olib kelgandi,-deya xotirlaydi uning fortepiano muallimasi Zub Nadejda Aleksandrovna.- Yosh bo'lishiga qaramay qobiliyatligi bois sinov asosida maktabga qabul qildik. Uning jajjigina barmoqlari klavishlarga

zo'rg'a yetardi. Oyoqlarining tagiga stul qo'yib berardik. Anvarjonda men katta iste'dodni sezaman. Bir narsa o'rgatsangiz, darrov ilg'ab oladi, musiqiy

uning noyob qobiliyatli ekanligini anglaganman,-deya ustozining fikrini davom ettirdi Uporova Lyudmila Aleksandrovna.- Mashg'ulotlarimiz davomida bunga ko'p bora amin bo'ldim. Sahnada ham o'zini juda yaxshi tutadi, atrofdagilarni his qilib turadi. Guruhimizning yakkaxon xonandasi. «Bolalik», «Mayda-mayda», «Do'stlik», ayniqsa, ustozining «Sinchalak» qo'shiqlarini sahnada jonli ijro etganda, muxlislari uni qarsaklarga ko'mib tashlashadi...

Anvarjon nafaqat san'at sohasida, balki

Odatda o'g'il bolalar biroz o'yinqaroq, sho'x bo'lishadi. Ulardan yaxshi ko'rgan fanlarini so'rasangiz, jismoniy tarbiya, deb javob berishlari tayin. Aksariyatining baholari ham haligidek bo'ladi. Pionino qarshisida sizga kulib boqib turgan mana bu bolakayning esa qiziqishlari biroz boshqacharoq.

Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 163-maktabning 2-«A» sinfida tahsil oladigan Anvarjon

To'laganovning o'qishlari a'lo. Matematika, rus tili, rasm darslariga juda qiziqadi. Yana... Keling, yaxshisi qolganini uning o'zidan eshitaylik...

-Musiqa chalish - eng sevimli mashg'ulotim. Uyimizda ustozim O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Ilhom aka Farmonov sovg'a qilgan «Belorus» nomli pioninom bor.

Tumanimizdagi 3-son bolalar san'at maktabida o'rgangan kuylarimni, «Aladdin» shou

guruhining «Tomchilar» dastasida o'rgangan qo'shiqlarimni pioninomning jo'rligida mashq qilaman. Keyin esa onajonim hamrohligida turli konsertlarga, tadbirlarga boramiz. Bu gapni bejiz aytayotganim yo'q. Hali yosh bo'lganim uchun bunday joylarga oyim olib boradilar. Har qanday ishlari, yumushlarini tashlab bo'lsa ham meni

xotirasi juda kuchli. Hozirda Bax, Chaykovskiy, Norxo'jayev, Azimov kabi qator bastakorlarning kuylarini ijro etmoqda. Bularning hammasi uchun farzandining qiziqishiga befarq bo'lmagan, fursatini ayamay uni yetaklab yurgan onasi Kifoyat opaga rahmatlar aytgim keladi.

-Anvarjonni ilk bor ko'rganimdayoq

bilim bobida ham ko'pgina yutuqlarga erishib kelyapti. Fikrimizni uning sinf rahbari Sodiqova Svetlana Xalilovna ham tasdiqladilar:

-Biz ko'pincha tevarak-atrofimizdagi, yonginamizdagi hayratli, chiroyli narsalarni payqamay qolamiz. Anvar esa go'zallikning, kuy-qo'shiqning qadriga yetadigan, bilimga chanqoq bola. Rus

tili bilan birga koreys tilini ham o'rganmoqda. Bu tilda ham ajoyib qo'shiqlar kuylaydi. Maktabimizda o'tadigan hech bir tadbir jajjigina Anvarjonning ishtirokisiz o'tmaydi...

Anvarjon ham boshqa tengdoshlari kabi futbolning ashaddiy ishqibozi. Yevropalik futbolchi Devid Bekxem jonu dili. Hatto futbolkasining orqasiga 7 raqamini tiktirib olgan. Mahallada uni Bekxem deb atashadi.

O'zi yosh bo'lsa-da, yigit kishiga yetmish hunar ham oz, degan naqlni o'ziga shior qilib olgan va maqsad sari tinmay intilayotgan mittigina Anvarjonga biz ham omadlar tilab qolamiz.

Nigora RAHMONOVA.

## MAHALLANING «BEKXEM»I



### MAKTABDAN KECH QAYTSAM, OTA-ONAM KOYIMAYDI

Maktabimiz ikki qavatli zamonaviy binoda joylashgan. Unda ta'lim olayotgan o'quvchilarning bilim darajasi ham shunga loyiq. 2002-2003 o'quv yilida maktabimiz barcha ko'rsatkichlar bo'yicha tumandagi 66 ta maktab ichida ikkinchi o'rinni egalladi. O'tgan yili 5 dekabrda G'ijduvon tuman Xalq ta'limi boshqarmasi mudiri K. Boboyev boshchiligida maktabimizga «Pentium-3» rusumidagi kompyuterlar keltirildi. Endi biz «Kompyuter saboqlari» to'garagiga qatnayapmiz. Shuningdek, maktab direktori

Sodiq Shodiyev, Zulfiya Sobirova, Mo'tabar Zikrillayeva kabi ustozlar rahbarligida talaygina to'garaklar muntazam ishlab turibdi.

Rustam NUTFULLAYEV,

9- «B» sinf o'quvchisi.

Bir maktabdan qo'sh maktub

### MURUVVATSIZNING JAZOLANISHI

Aytishlaricha, bir podshoh o'ziga hashamatli saroy qurdirmoqchi bo'libdi. Shu maqsadda ustalarni chaqirib, zarur ko'rsatmalarni beribdi.

Ittifoqo, podshoh o'z saroyini qurishni mo'ljallagan bahavo joyda bir beva ayol va uning yetim bolalari yashaydigan ko'rimsiz kulba bor edi. Kunlarning birida zarur yumush bilan uyidan chiqqan ayol qaytib kelsa, zolim, muruvvatsiz podshoh amri bilan uning kulbasi buzilgan, bor-budi yer bilan bitta bo'lgan edi. Ko'ngli buzilgan g'amboda ayol nochor ko'kka ko'z tikib, nola qilibdi:

-Ey, qodir egam, menku uyda yo'q edim, ammo sen bor eding-ku!

Shu lahzadayoq zolim podshohni ham, uning behisob mol-mulkini ham yer yutibdi.

Qissadan hissa shuki, zulm bilan yetimning dilini og'ritmoq katta gunohdir.

Muyassar BO'RONOVA,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 51-maktabning 1 toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisining tojik tilidan tarjimasi.

### USTOZLAR BELLASHUVI

Maktabimiz o'quvchilari orasida turli bellashuv va musobaqalar tez-tez bo'lib turar, o'qituvchilarimiz bizga hakamlik qilishardi. Bu gal esa ustozlarimizning o'zlari «Yilning eng yaxshi o'qituvchisi» tanlovida bellashdilar. Beshta shartdan iborat bo'lgan tanlov juda qiziqarli o'tdi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Nodira opa Rashidova o'zbek tilining naqadar boyligi, go'zalligini she'riy misralar orqali ifodalab berdilar. Ularning tanbur chertib aytgan qo'shiqlarini maroq bilan tingladik, «Kamolot» sardori Xurshida opamizning zamonaviy raqslarini zo'r qiziqish bilan tomosha qildik. Tanlovda ishtirok etgan boshqa ustozlarimiz ham bir-birlaridan qolishmadilar.

Hakamlar hay'ati ustozlarimizning chiqishlarini haqqoniy baholashdi. Nodira opa Rashidova hamda Gulnora opa Karimovalarga «O'z kasbining ustasi», Xurshida va Nazokat opalarimizga «Zamonaviy o'qituvchi», Naima va Muyassar opalarimizga «Mehribon o'qituvchi» nominatsiyalarini berishdi. «Eng zukko o'qituvchi» nominatsiyasi hamda 1 - o'rin Muqaddam opa Yusupovaga nasib etdi. Tadbir so'ngida ustozlarimizni samimiy qutlab, guldiros qarsaklar bilan olqishladik.

Dilrabo YUNUSOVA,

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 249 - maktabning 9 - «B» sinf o'quvchisi.

### KIM O'ZARGA O'YNOLMAYSIZ

Yaqinda bizning Xursandoy Egamova nomli maktabimizda 9-sinf o'quvchilari o'rtasida «Siz qonunni bilasizmi?» ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Bu tanlovda Mahliyo sardorligidagi 9- «D» sinf o'quvchilari munosib darajada o'zlarini ko'rsatib, g'oliblikni qo'lga kiritdilar. G'olib sinfga maktabimiz rahbariyati tomonidan maktablararo o'tkaziladigan «Siz qonunni bilasizmi?» ko'rik-tanloviga qatnashish uchun yo'llanma berildi.

Har guruhning sardorlari Mahliyodan o'rnak oling,

Yetti o'lchab kesganda, Madinaga siz lol qoling.

Zuhraxonga huquqdan savol berib, o'ylanmaysiz,

Birlashsalar ular birga, kim o'zarga o'ynolmaysiz.

Nigora RAHMONOVA,

Navoiy viloyati, Karmana tumanidagi 9-maktabning 10- «A» sinf o'quvchisi.

### «QISH SONATASI»DAN O'RNAK OLDIK

Teleekran orqali namoyish etilgan «Qish sonatasi» serialidan so'ng o'rnak olib, bizda ham maktabimizda radioto'garak ochish ishtiyoqi kuchaydi. Bu fikrimiz hammaga ma'qul tushib, maktabimizning suxandon o'quvchilari a'zolidagi radioto'garagimiz ishga tushdi. Uning rahbari etib qoraqalpoq tili o'qituvchisi, «Shuhrat» medali sohibasi Qizlargul Hudiyyorova tayinlandilar. Qoraqalpoq tilida «Nurli kelajak» va o'zbek tilida «Maktab faol o'quvchilari» deb nomlangan ikkitagina eshittirishimiz bo'lsa ham, mehnati juda katta. Bu to'garakni ochishdan asosiy maqsadimiz faol, a'lochi o'quvchilarni maktab jamoasiga namuna qilish va «darsdan qochish» degan odatni kanda qilmayotgan o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish.

Bizning fikrimizcha, boshqa maktablarda ham bu borada e'tiborli ishlar qilinsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Bibimaryam XO'JANOVA,

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi 57-maktabning 10-sinf o'quvchisi.



## SEVGIM

Gullarning g'unchasi ochilmay qolmas,  
Jumboqning yechimi yechilmay qolmas,  
Ko'ngildasi durlar sochilmay qolmas,  
Xayolim sendadur, sendadur sevgim.  
Sog'inchlarim mening zorga aylandi,  
Senga intiq qalbm torga aylandi,  
Boshimdagi sochim qorga aylandi,  
Xayolim sendadur, sendadur sevgim.  
Sen mening eng toza osmonidirsan,  
Bedor hislarimga posbonidirsan,  
Sen mening borlig'im jahonidirsan,  
Xayolim sendadur, sendadur sevgim.  
Umida EGAMOVA,  
Toshkent Qishloq Xo'jalik  
kasb-hunar kolleji talabasi.

## ZO'R IMKONIYAT

14 fevral - sevishganlar kuni sanaladi. Shu kuni dilidagini tiliga chiqara olmay yurgan biz kabi «oshiqlar» uchun zo'r imkoniyat tug'iladi-da. Bashang kiyingan bir bola bilan bir qiz aloqachilik qilib, ishqiy maktublarni egalariga tarqatishadi. Shu kuni qizlarga xat yozsak ham, ulardan xat olsak ham hech kim urishmaydi. Chiroyli «otkritka»lar olib, ichiga yuragimizning tubiga yashiringan so'zlarimizni yozamiz-da, aloqachilarga beramiz. Maktubimizning javobini esa maktabimiz zalida bo'ladigan sevgi karnavalida olamiz.

Shuhrat SOLIYEV,  
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumani.

USTOZIMNI  
UYALTIRAMAN

Maktabimizda sevishganlar kuni munosabati bilan diskoteka o'tkaziladigan bo'ldi. Unga taklifnomalar ham tarqatildi. Darslar tugagach, dugonalarim bilan uyga ketayotgandik, jismoniy tarbiya o'qituvchimiz chaqirib qoldilar. «Ha qizlar, nima uchun diskotekaga kirmay, ketib qolyapsizlar?», deb so'radi. Biz xohishimiz yo'qligini aytgandik, u bo'lsa, o'zingizni sipo qilib ko'rsatmay qo'ya qoling. Panapastqamda bolalar bilan gaplashib turishni bilasizlar, deya haqorat qildilar. Biz yig'lab yubordik. Uyga borib onamga aytib berdim. Ular ham astoydil ranjidilar: «Qo'yaver, ona qizim, o'qituvchilar orasida ham shundaylari uchrab turadi. Sen o'zingga to'g'ri bo'lib yuraversang, bir kun kelib aytgan gapiga o'zi pushaymon yeydi», dedilar. Men ham ustozimni uyaltirib qo'yish uchun astoydil harakat qilyapman.

DILNOZA, Andijon viloyati.

## SIZNING FIKRINGIZ QANDAY?

Kasbi o'qituvchi, uzoq yillardan buyon maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars berib kelaman. Bolalarning olami, ruhiyatini juda yaxshi bilaman. Biz ustozmurabbiylar o'quvchilarga ta'lim beribgina qolmay, ularning tarbiyasi uchun ham mas'ulmiz. Shuning uchun ham bolalar tarbiyasiga oid ayrim fikr-mulohazalarim bilan o'rtoqlashishga haqliman, deb o'ylayman.

Meni bir narsa ko'p o'ylantiradi. Keyingi paytlarda maktab o'quvchilari orasida «Sevishganlar kuni»ni nishonlash urfga aylanib boryapti. Shu kuni o'g'il-qizlar bir-birlariga ishqiy maktublar yozishadi, pinhona emas, oshkora uchrashishadi, qimmatbaho sovg'a-salomlar taqdim etishadi, diskotekalarda jazavaga tushib raqsga tushishadi. Achinarlisi, bunday tadbirlarga ustozlarning o'zlari bosh-qosh bo'lishadi. Menimcha, bularning bari o'zbekona urf-odatlarimizga, sharqona tarbiyamizga zid narsalar. Bunday his-tuyg'ularga duchor bo'lmagan bolalarda ham ishqiy havas uyg'onadi, fikri bo'linadi. Dugonalar ishqiy maktublar, sovg'a-salomlar olganu, unga hech kim xat yozmagan qizning holatini ham bir tasavvur qilib ko'ring-a...

Nazarimda, o'quvchilar bunday narsalar haqida o'ylashga hali juda yoshlik qilishadi. Shular haqida, qolaversa, maktab o'quvchisi qimmatbaho sovg'alar uchun mablag'ni qayerdan olayotgani haqida jiddiy o'ylab ko'rilsa, foydadan hol bo'lmasdi, deb o'ylayman.

Aziz ustozlar, bu borada sizning fikringiz qanday? Biz bilan o'rtoqlashasiz, degan umiddaman.

Nasiba TURDIQULOVA,  
Toshkent shahri, Sirg'ali tumani.

## Maktabdagi muhabbat



Tengdoshingiz-  
Qashqadaryo viloyati,  
Chiroqchi tumanidagi  
«Bolalar va o'smirlar  
ijodkorlik markazi» a'zolari  
Albina MINIKAYEVA va  
Lola JUMAG'ULOVALAR  
«Sevishganlar kuni»ga  
bag'ishlab rasm chizib  
yuborishibdi.

## JAVOBSIZ MUHABBAT

Salom qadrdonim «Tong yulduzi»! Anchadan buyon senga maktub yozaman deb yurardim. Bugun jazm qildim. «Maktabdagi muhabbat» sahifangni qoldirmay o'qib boraman. Bugun men ham ilk muhabbatim haqida yozmoqchiman...

Samarqandga aylangani borib, U. ismli bir bolani ko'rib qoldim. U juda kelishgan, chiroyli bola edi. Maktabda ham a'lo baholarga o'qirgan. Men buni o'sha maktabda o'qiydigan dugonalarimdan so'rab bilib oldim. Nimagadir u xayolimdan ketmay qoldi. Yursam ham, tursam ham, yotsam ham uni o'ylaydigan bo'lib qoldim. Hatto tushlarimga ham kirib chiqadigan bo'lib qoldi. Men u bilan umuman gaplashmaganman. U bolaning velosipedi bor, qo'ng'irog'i jarangdor. Ko'chadan biror velosiped qo'ng'iroq chalib o'tib qolsa, yuragim xapqirib ketadi. U keldimikan, deya yugurib chiqaman. Afsuski...Men sevib sevilman qizman. Hozir mana shu satrlarni yozyapmanu, yuzlarimni ko'z yoshlarim yuvib tushyapti. Men uni juda qattiq sevib qoldim. U esa beparvo. Sevgimni oshkor qilishga qiz bolalik g'ururim yo'l qo'ymaydi. Shuning uchun senga maktub yozishga ahd qildim. Shoyad U. ham shu sahifani o'qisa-yu, meni payqasa...

Sizlardan iltimos, mening ism-sharifimni aniq yozmang. Faqatgina O. deb yozib qo'ying.

Sirdaryo viloyati, Binokor qishlog'i,  
Tinchlik ko'chasi.

Qadim o'tgan zamonda juda go'zal bir orol bo'lgan ekan. Uni odamlar «Sevgi oroli» deb atasharkan. Bu orolning boshqa orollardan farqi shunda ekan, u yerdagi o't-o'lanlardan tortib oyyu quyoshgacha hamma-hammasi yurak shaklida ekan. Odamlari bir-birlariga mehribon ekanlar. Bu orolda sevishganlar juda ko'p bo'lib, ular orasida ismli bir qiz ham bor ekan.

Ishq ismli bir yigit bilan Visol Shu orolga yaqin joyda orol bor ekan. Unda Jobir yasharkan. U baxtli hasad ko'zi bilan qararkan. kattakon yurak shaklidagi Orolidagi odamlar og'ir qaytarish uchun Ishq Jobirning


-Quyoshingizni qaytaraman. menga joningni berasan,-debdi Visolning visoliga yetishishni Ishq uzoq o'ylanib ham o'tirmay Jobirning shartiga ko'nibdi va unga o'z.

Orolga quyosh qaytibdi. Odamlari baxtiyor, shod-xurram yashay boshlashibdi. G'alaba nashidasini surayotgan Jobir Visolga uylanmoqchi bo'libdi. Ishqning halok bo'lganini eshitgan Visol, usiz menga hayot yo'q, deya o'z joniga qasd qilibdi...

Bu fojea, judolikdan orol ahli qayg'uga botishibdi va orolning eng ko'rkam joyiga xaloskorlari bo'lmish Ishq va Visolning haykalini o'rnatishibdi.

Qissadan hissa shuki, bu ertagimiz barcha sevishganlarga ibrat bo'lsin.

Maftuna QO'CHQOROVA, Barno YUNUSOVA,  
Toshkentdagi 179 - maktabning 7 - «G» sinf o'quvchilari.





# KITOBNI SHAMOL HAM VARAQLAYDI, BIZNING QUDDUS MUHAMMADIY...

Turli sayyoralar kabi mangulikka dahldorlarning oldida inson umri gulga qo'ngan kapalak umri misol. Kimdir ana shu qisqa umri davomida o'zgaralar yuragini zabt etsa, kimlardir xuddi dunyoga kelmagandek, nom-nishonsiz ketishadi. Faqat ezgulik ishlari bilan yuragingga o'rnashib olgan o'sha inson dunyodan o'tgach, uning odamiyligi, oqko'ngilligi, halolu mehribonligi, insofu diyonatga yo'g'rilganligini o'ylayverib, ko'zlaring jiqqa



yoshga to'ladi. Falak ishlari oldida ojiz qolib, bu «ko'hna ravoq» (Hisrav Dehlaviy) o'z eshigidan abadiyatga Temurdek sohibqironni, Ibn Sinodek donishlarni, Ulug'bekdek shohu olimlarni chiqarib yuborib, yana qulamay, kimni bolasidan, kimnidir otasidan, kimnidir sevikli yoridan va yana kimnidir Quddus Muhammadiydek ustozidan ayirib, uning dog'ida kuydira borganini anglab, alamingni pinhona ko'z yoshlaringdan olasan.

Umrida biron marta spirtli ichimlik ichmagan, chekmagan, ukol olmagan, kasallikni quvuvchi dori-darmonlarni og'ziga solmagan, faqat quyosh nurida pishib yetilgan olma, o'rik, yong'oq, uzum, shaftoli kabi jannatiy mevalarni iste'mol qilgan va o'sha mevalarga atab «Ochil

Bir gal trolleybusga ustoz bilan chiqsak, odamlar tirband, yo'lovchilar tik turib ketishayotgan ekan. Shunda Quddus aka bir notanish yo'lovchi yelkasidan pastga tushib ketayotgan chumolini sezdirmay olib, oynadan pastga tashladilar. Bekatda tushgach, menga «o'sha odam bechora chumolini boshqalarga ishqab o'ldirib qo'yar edi. Endi u yashaydi, u ham umid bilan dunyoga kelgan-ku», dedilar. O'shanda ustozning ancha yillar oldin yozilgan «Chumoli» she'rini esladim. Chumolidan so'rashadi: «Hoy chumoli, nega boshing kichik, beling ingichka, orqang katta?». Chumoli javob beradi: «Belimga mehnat-mashaqqat, hayot, tirikchilik kamarini siqib bog'laganman. Orqamga esa g'iybat, gina-kudurat, fisqu fasodni ortganman. Shu bois biri ingichka-yu, biri katta».

dasturxon» nomli Navoiydek besh ta kitobdan iborat «Xamsa» yaratgan bu odam o'zga olam, beozoru beg'ubor edi.

Nazarimda, u chumoli emas, shoirning o'zi. Barcha fisqu fasod, riyokorligu, kekkayish, manmanlikni orqaga o'tib, hayotini

ezgulik, o'zgalarga yaxshilik qilish bilan to'lg'azgan tabarruk inson edi u.

Men ana shunday ezgulikni boshiga toj qilib olgan, shoirni o'zim ishlaydigan Shahrizabdagi Y.Oxunboboyev nomli 2-internat maktabida har yili o'tkaziladigan

an'anaviy gullar bayramiga taklif etishimni maktab direktori Oydin opa Rahimovaga aytganimda, u kishi quvonib, taklifimni quvvatladi. 1980 yil 14 mayda Quddus aka va shogirdi Miraziz A'zamni bu internat maktabiga kelishi nafaqat shahrizabzlik, balki, qashqadaryolik ijodkorlarning haqiqiy bayramiga, o'quvchi-pedagoglarning sayliga aylanib ketdi.

O'roq SAID.

## «QOR MALIKASI»NI YAXSHI KO'RARDIM...



Men «Qor malikasi» badiiy filmi qayta-qayta ko'rsam ham zerikmasdim. Hans Kristian Andersenning «Qor malikasi» kitobini kutubxonachimiz «Mana, zo'r kitob, o'qigin», degandilar. Kinosini ko'rganman-ku, deb olmagandim. Ertasiga o'rtoqlarim shu kitobni talashib o'qiy boshladilar. Men ham qiziqib, 10 kunlardan so'ng navbatim kelib, kitobni oldim. Kitobdagi «Qor malikasi», «Suv parisi», «Dyumchaxon» ertaklarini mazza qilib o'qidim. Kitobda qaroqchi qizning uyi, undagi yuzdan ortiq kaptarlar, shimol bug'usi haqida ancha ma'lumotlar bor ekan. Kinoda Gerda va Keyni opa-uka deb o'ylardim, aslida ular tutingan aka-singil ekanlar. «Dyumchaxon» ertagi ham zo'r ekan. Qizaloq kichkina bo'lib, bo'yi bir dyum (bir dyum - 2,5 sm) bo'lgani uchun ismini farzandga zor ayol Dyumchaxon deb qo'ygan, yong'oq pallasini unga belanchak qilgan ekan. Kichik qizaloqning sarguzashtlari ham juda qiziq. Kitobni o'qib, shunday xulosaga keldim: har qanday badiiy asarni kinosini ko'rgan bo'lsam-da, albatta kitobini ham o'qiyman. Kitob kinodan kuchli ekan.

Zebo SHARAFIDDINOVA,

Shayxontohur tumanidagi 186-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

## TOSHDAN KO'YLAK TO'QISH

Men bu haqda Abu Rayhon Beruniyning «Feruz» kitobidan bilib oldim. Javohirlar haqidagi naql va hikoyatlardan iborat bo'lgan bu kitob Beruniy tavalludining 1020 yilligiga atab chop etilgan ekan. Kitobda yozilishicha bir kishi toshdan o'tda ham kuymaydigan ko'ylak to'qigan. Bunga ishonmagan odamlar ko'ylakni yoqqa botirib kuydirishgan, lekin ko'ylak yonib ketmagan. Aksincha, yog'yonib, ko'ylak aslidan ko'ra ham tozalangan.

Kitobdagi «Chol va chumchuq», «Hadya qoshiq», «Zumurrad aso» kabi hikoyatlarni ham qiziqish bilan o'qidim. Chumchuqning uch hikmatli so'zi - o'tgan ishga hech qachon

pushaymon qilma, qo'lga kiritishing mumkin bo'lmagan narsaga harakat qilma, aqling bovar qilmaydigan narsalarga hech ham ishonma, degan hikmatlari va unga amal qilmagan chol pushaymoni ibratli ekan. Kitobda turli qimmatbaho toshlar, podshohlar xazinasida saqlanadigan «taka toshi» haqida ham ma'lumotlar berilgan. Asalarilar o'z asali va bolalarini o'z mumi bilan muhrlab, bu joyni qop-qora narsa bilan yopadi, bu narsa o'tkir hidli va mumga o'xshagan bo'lib, yara-chaqaga yaxshi davo sanaladi. O'zi qimmatbaho va kam bo'ladi. Bu forscha mo'miyo, deb ataladi. Bu kabi ma'lumotlarni kitobdan bilib oldim.

Feruz USMONBEKOVA,

Yunusobod tumanidagi 122-maktabning 4-sinf o'quvchisi.

## O'QISHGA DA'VAT

Hamma maktablarda bo'lgani kabi bizning Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan 27 - maktabda ham buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy tavalludining 563 yilligiga bag'ishlangan navoiyxonlik kechasi bo'lib o'tdi. Kecha tashkilotchilari Yoqutxon opa Saburova hamda Kamola Odilovalarning sa'y-harakatlari bois tadbirimiz juda qiziqarli va maroqli o'tdi. Maktabimiz rahbari Nasiba opa Turdiyeva hamda unga mehmon bo'lib kelgan Matluba opa Inoyatillayeva, Nodira opa Mirzayevalar sevimli shoirimiz haqida qiziqarli hikoyalar,

rivoyatlar so'zlab berishdi. Davrani olib boruvchi Dildora Ibragimova, Nilufar Ubayeva va Baxtiyor Zoidovlar Navoiy bobomizning g'azal va ruboiylaridan o'qidilar. Mushoirani Iroda To'xtamurodova, Nodira Husniddinova, Gulnoza Pirnazarova,

Nodira Razzoqova, Rustam Shorahimovlar davom ettirishdi. Nodira Husniddinovaning Navoiy g'azali bilan dutor chertib aytgan qo'shig'iga Gulnoza Bobatayeva xirom ayladi. «Bulbulcha»ning xushovoz xonandasi Akmal Akbarovning xush ovozi yig'ilganlarni o'ziga rom etdi. Biz o'quvchilar qalbida adabiyotga, she'riyatga, qolaversa, kitobga mehr uyg'otadigan bunday tadbirlar tez-tez bo'lib tursa, foydadan holi bo'lmasdi.

Sevara MIRZAYEVA, 6 - «B» sinf o'quvchisi.



## GAP UNI O'QIY BILISHDA

## BOLAGA O'YLAB GAPIR

**-Ortiqjon, bugun suhbatimiz boshida bolajonlarimizga qiziqchilik tarixi haqida bir oz so'zlasangiz?**

-To'g'ri, qiziqchilikning ham tarixi olis. O'rta asrlarda shohlar xalq ichidagi donishmand, hozirjavob, hazilkash odamlardan o'zlariga qiziqchi tanlab olishgan. Bu qiziqchilar shohning bazmlarini, to'ylarini qizitib, saroy a'yonlarini kuldirib kelishgan.

Ustoz qiziqchilar Muhiddin Darveshov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Rustam Hamroqulovlarni taniganlar unchabunchaga kulaverishmaydi-da!

-O'zim Samarqandning mashhur Urgutidanman,- deydi san'atkor. -Oilamizda yettinchi o'g'il bo'laman.


kuni shunday intermediyamizni ko'rish uchun qishlog'imizning odamlarini qiziqib kelganlar.

Gapni gapga bog'lash uchun ham, fikrni tiniq ifodalay olishga ham kitob o'qish qiziqchi uchun juda muhim. Bolalikdan ko'p kitoblar o'qishga odatlanganman. Ayni paytda ham oilam va bolalarim uchun har oyda 10 ming so'mdan ziyod kitoblar xarid qilib turaman. Do'stlarim mendan:

-Sinfimizda bir kishi chekmas ekan...

-Kim ekan u, senmi?

-Yo'q, o'qituvchimiz!



Tergovchi ayblanuvchiga:

-Kasbingiz?

-Akrobatman.

-Yaxshi. Serjant, derazani yopib qo'ying.

Shular asosida ikki yil davomida ikki kitobimni nashr ettirdim.

**-Yana kitob yozish niyatingiz bormi?**

-Ha, uchinchi kitobning ham qo'lyozmasi tayyor. Uni

«Kuldirib kulganlarim» deb nomladim. Yaqin orada bu kitobim muxlislar qo'lida bo'ladi.

**-Nima deb o'ylaysiz, bizda bolalar qiziqchilik san'ati bormi?**

-Bolalar adabiyoti, bolalar san'ati azaldan

juda murakkab sanaladi. Aytilayotgan har bir so'zimizni biz qiziqchilar ham ehtiyotkorlik bilan yetkazishga harakat qilamiz. Bo'lmasa o'rinsiz bir gap bolaning ongiga teskari ta'sir qilib, yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Olis tarixga ega bo'lgan qiziqchilik san'atimiz dunyoning turli mamlakat sahnalarida o'rin olayapti. Birgina misol, artist Obid Asomovning, Hindiston, Amerika, Germaniya va boshqa ko'plab mamlakatlardagi xizmat safari milliy san'atimizni yana bir pog'onaga ko'tardi. 2004 yil rejalarimizda biz «Handalak»chilar ham xorij safarini tashkillashtiryapmiz.

**Ma'mura MADRAHIMOVA** suhbatlashdi.

## ERTAKLAR - JONU DILIM

Bolaligimdan ertak tinglashni yaxshi ko'rardim. Maktabga borib o'qishni o'rganib oldimu, ertaklar olamiga shoh'ng'idim. Yaqinda «Sehrlil ketmon» nomli ertak kitobini o'qidim. Unda Uyg'ur xalq ertaklari jamlangan ekan. «Barakalla» nomli ertak menga juda yoqdi. Kambag'al dehqon qiyin ahvoldan chiqib ketish uchun qish faslida xandalak yetishtirib, birinchi hosilini podshohga olib boradi. Podshoh esa «Barakalla» deyishdan nariga o'tmaydi. Qorni och dehqon esa oshxonaga kirib, 20 ta mantini yeb, «barakalla» deb ketmoqchi bo'ladi. Oshpaz g'azablanib, uni podshoh huzuriga olib boradi. Podshoh nega mantini yeb, haqini to'lamading, deb so'rganida, Handalakka aytgan «barakalla»ngizni oshpazga berdim, xolos deb javob beradi. Podshoh o'z qilmishidan uyalib, mantining pulini to'lab yuboradi.

«Fil bilan maymun» ertagida esa ukkingning: «Kuch va epchillikni alohida baholab bo'lmaydi. Ikkalasi birlashsa yana ham yaxshiroq bo'lar ekan», degan fikri menga ma'qul keldi. Kitobdagi «Uch aka-uka», «Gapbermas va Nonbermas», «Yaxshilikka yomonlik» ertaklarini ham mazza qilib o'qidim. Ertaklar - jonu dilim. O'qigan sari o'qigim kelaveradi. Axir, «Ertaklar - yaxshilikka yetaklar», deyishadi-ku!



**Aziza MANSURIY,**

*Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi*

*178-tilshunoslik yo'nalishidagi litseyning 8-sinf o'quvchisi,*

To'g'risini aytsam, sog'ligim sabab, bolaligim ota-onam bag'ridan uzoqroqda o'tgan. Maktab - internatda menga asosiy hamroh kitob edi. Maktabda tez-tez intermediyalar qo'yib turardik. Bir

«Xarid qilgan barcha kitoblaringizni o'qiysizmi?», deb so'rashadi. Rost gap, ko'proq kitob bilan vaqt o'tkazishni yaxshi ko'raman. Yana shu odatim borki, bir kitobni ikki marta o'qiyman. Sabab, kitob bir marta o'qilganda undagi voqealarni to'laqonli tushunmasligingiz mumkin, ikkinchi marta o'qilganda esa, uqish oson kechadi.

Uch nafar o'g'lim bor. Yaqinda men ularga «Tillo kokilli bola» va «Qizil shapkacha» nomli kitoblarni sovg'a qildim. Darsdan so'ng farzandlarim sport mashg'ulotlariga qatnaydilar.

Aksariyat bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishi biroz susaygandek. Shu o'rinda yana bir narsani aytib o'tish kerakki, bugungi yoshlarning ko'pgina qismi o'zlariga kitob tanlashni bilmaydilar. Chunki ularning

## AKAMNING KITOBI

*O'qishlarim qiyindir,*

*Biri biridan.*

*Lekin «besh»im tayindir*

*Shu algebradan.*

*«Besh» olmoqlik osonga*

*Tushmaydi rosti.*

*«Suflyor» ham bir og'iz so'z*

*Qo'shmaydi rosti.*

*To'g'ri yozib qo'yilgan*

*Javob kitobda.*

*Akam usta edi-da*

*Axir hisobda!..*

**UMIDA.**

## QARG'ALARDA AQL

## BO'LADIMI?

БОБОЛАРДАН - БОЛАЛАРГА



«Bobolardan - bolalarga» nomli bu kitob kiril alifbosida yozilgan bo'lsa ham qiynalmay o'qib chiqdim. Unda Alisher Navoiy, Abdulvahobxo'ja o'g'li Poshshoxo'ja, Gulxaniy, Abdulla Avloniy, Hamza asarlaridan namunalar, kichik-kichik hikoyatlar keltirilgan. G'ayratsiz, ochko'z, xasis kishilar haqidagi hikoyatlar to'g'ri xulosa chiqarishga undaydi. «Aqlli qarg'a» hikoyatida suvsagan qarg'a ko'za tagidagi suvni icholmay qiynaladi. Biroz o'ylanib, tumshug'i bilan toshlarni yig'ib, ko'za ichiga tashlay boshlaydi. Natijada tosh ko'za tagiga, suv esa yuzaga chiqib, qarg'a tashnalikdan qutuladi. Yoki arslon va ayiq kiyik ovlab, kim katta ulushga ega bo'lishini talashib janjallashadilar. Ikkisi urishib, holdan toygan paytda bo'rilar kelib, kiyik go'shtini yeb, ularga suyakni qoldirib ketadilar. Hamzaning «Ato nasihatining natijasi» she'rini o'qib esa, ota nasihatlariga amal qilmaslik yomon oqibatlariga olib kelishini tushunib oldim.

**Mohira YORMUHAMMEDOVA,**  
*Toshkent tumanidagi 9-maktabning 6-sinf o'quvchisi.*



## «NAFOSAT» BOG'IDAGI G'UNCHALAR...

Sizlar qanday o'ylaysiz bilmadim-u, hamma bayram biz - bolalarniki! Sanab beraymi?! Kuzda bo'lib o'tadigan «Mehrjon» bayrami, Baxtimiz qomusi qabul qilingan kun, Yangi yil bayrami, Navro'z ayyomi barcha-barchasida maktab zali tengdoshlarimning quvonchi bilan to'lib-toshadi. Xalq sayillarida ko'chalarni to'ldirib, yasanib yurishlarimiz-chi?...

Yana shunday bayramlar oldidan ko'rik-tanlov, musobaqalarda ishtirok etish zavqiga nima yetsin? Ayniqsa, u butun respublikamiz darajasida bo'lsa!

Xalq ta'limi Vazirligi, Ma'naviyat va qo'shimcha ta'lim boshqarmasi, Yozuvchilar uyushmasi hamkorlikda tashkillashtirib ketayotgan ijodiy anjumanlar juda ko'p ijodkor o'quvchilarni kashf qilishda maktab bo'lib xizmat qilmoqda. Ana shunday tadbirlardan biri - «Nafosat» anjumanida zavqu shavqqa to'la ijodkor tengdoshlarimning ayrimlari bilan suhbatlashdim:

### Sofiya O'ROLBOYEVA:

-Men Farg'ona viloyatining Dang'ara tumanidagi 14- maktabning 6-sinfida o'qiyman. Bizning qishlog'imiz «Minglar» deb nomlanadi. Qishlog'imiz tabiati juda chiroyli. Yayman soyi qishloq etagidan oqib o'tadi. Qishloqdoshlarimiz bir-biriga juda mehr-oqibatli. Men shulardan ilhom olaman. Ilk she'rim «Dang'ara» gazetasida bosilgan.

-Sofiyaxonda adabiyotga bo'lgan havas juda erta o'yg'ongan. Uni tabiatdagi o'zgarishlar, odamlarning bir-birlariga bo'lgan go'zal munosabatlari ilhomlantiradi,- deydi uning ustoz. «Nafosat» anjumaniga birga kelgan har bir o'quvchining ustoz

ko'nglidan shunday tilaklar o'tadi.

Endigina sahnadan tushgan yana bir tengdoshimni suhbatga tortaman.

### Muhlisa ASHUROVA:

-Farg'ona viloyatining Furqat tumanidagi 5-maktabdan kelganman, ushbu ta'lim maskanining 5- sinfida o'qiyman. Ko'nglimdagi

to'yg'ularimni, hayajonlarimni she'rlarimda ifodalashga harakat qilaman.

### Hur diyorum chamanzor,

Yo'llarim gullar bezar.

Ko'ngillar topmas ozor,

Bag'ri bahor Farg'onam...

«Atirgul» nomli she'rlar to'plamini varaqlayotib, undagi satrlarni nihoyatda samimiy ekanligi e'tiborimni tortdi. Kitob muallifi andijonlik **Umida Jabborova** ismli tengdoshim ekan.

-Tabiatan og'ir-bosiroqman. Shu bois she'riyatga moyil bo'lsam kerak. Hamma shoir, yozuvchilarni o'zimga ustoz deb bilaman, ularning asarlarini o'qib, ko'p narsa o'rganaman. Anjuman davomida qoraqalpog'istonlik va namanganlik tengdoshlarim she'rlaridan katta taassurot oldim.

Haqiqatan ham o'lkamizning turli go'shalaridan kelgan anjuman ishtirokchilari yuzidan o'z maskanlarining nafasi ufurib turganday.

«Nafosat» yosh ijodkorlar tanloviga kelgan o'quvchilar bilan birga bo'lib, hammalarining dillarida bolalikning sodda, beg'ubor tuyg'ulari jo'sh urayotganini sezdim. Ko'plari bilan do'st tutindim.

### Sayyora ZIYOTOVA,

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 9-maktab o'quvchisi.

### Bayram-bolalarniki

### Tengdoshlaringiz ijodi

## BIZNING OSTONAMIZDAN



Obod bo'lsin mahallam,  
Osuda o'tsin tuni.  
Ko'cha, hovlilarini,  
Supuraman har kuni.  
Mahallam bolalari,  
Yashar do'st, inoq bo'lib.  
Porloq bo'lar ertamiz,  
Ulg'aysak kuchga to'lib.  
Mahallamiz oboddir,  
Gullab yashmaydi Vatan.  
Chunki Vatan boshlanar,  
Bizning ostonamizdan.

Gulhayo MAHMUDOVA,  
Buxoro viloyati,  
Qorovulbozor tumanidagi  
7-maktabning 3-sinf o'quvchisi.

## BOBUR ARMONLARI

Andijonim, qaydasan jonim, Turkistonim belanchagida,  
Ko'ksim pora etgan hijronim. Unib-o'sgan norasta go'dak.  
Qovunlaring isin tuyar dil, Vatan, sen-chi yurak tubidan,  
Hind elida o'rtanar ko'ngil. Unib chiqqan xushbo'y gulchechak.

Andijonim, jonim sandadir, Yo rab, buncha sho'rdir peshonam,  
Yetmish ikki qonim sandadir. Olislarda bo'zlar zor onam.  
Asrlarga teng yelkadosh, Yurt sog'inchi qiymalar yurak,  
Ortda qolgan onim sandadir. Azoblarda qoldi jon-tanam.

«Vatan» dedim, vidolarim ham,  
Nidolarim ko'ksimda qoldi.  
«Anda jonim qoldi» dedim, lek  
Aytilmadi, bo'g'zimda qoldi.

Sadoqat DADAYEVA,  
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi  
1-o'rta maktabning 9 - «B» sinf o'quvchisi.

Juda qadim zamonda bir gala arilar to'dasi gullar shahrida yashardi. Bahor kelishi bilanoq ular tinmay gullardan-gullarga qo'nib, bol yig'ishadi. O'zlarining serharakatligi bilan zavqu shavqqa to'lgan bu zahmatkash mittigina mehnatsevarlar hamisha hurmat bilan tilga olinar edilar. Lekin ular orasida dangasa, ishyoqmas, qo'rs fe'lli bir ari bor edi. Hamisha oftobda gulkosalarda uzala tushib yotgani-yotgan.

Uzoqdan qarasangiz ham oppoq gullar orasida bo'yni yaltirab ko'zga ko'rinar, to'dadagilar uni Sariqbo'yin deb atashardi. U

boshqa arilarga nisbatan o'zini yuqori tutardi. Hech kimning pandu nasihatlariga quloq solmas, doimo o'z bilganini qilar, o'jar edi. «Kel, o'rtoqjon, asal yig'ib, qish hozirligini ko'raylik», deyishibdi barcha arilar. U bo'lsa, o'zlaring yig'averinglar, men kapalaklarni uchishini tomosha qilayapman, debdi pinak buzmasdan. Arilar qattiq xafa bo'lishib, uchib ketishibdi. O'jar ari bilan hech kimning ishi bo'lmabdi. Bahor, yoz, kuz tugab, qish fasli yetib kelibdi. Zumrad qish borliqqa o'z hukmini o'tkazib, oppoq qor ko'rpsini to'shabdi. Sovuq jon-jonidan o'tgan Sariqbo'yin dirdir titrab, nima qilishini bilmay qolibdi. Noiloj qolgan ishyoqmas ari borib do'stlaridan kechirim so'rabdi. Qilgan ishiga ming-ming pushaymon ekanligini xo'rsinib

## G'AYRATLI BO'LISH OSON EMAS

### O'zimiz ertak yozamiz

so'zlabdi. To'daboshi va barcha arilar uni kechirishib, uylariga kiritishibdi. Xursand bo'lgan Sariqbo'yin endi dangasalik, bekorchilik kabi illatlarimni butkul tashlayman. Mana ko'rasizlar, bahor kelishi bilan xuddi sizlar kabi yelib-yugurib gullardan bol yig'aman, deya xo'rsinib bahorni orziqib kuta boshlabdi. Bir kuni u tush ko'ribdi,

tushida gullar o'lkasidagi katta gulzorda yolg'iz emish. Rango-rang gullar chamandek ochilgan, borliq ajib muattar hidga to'la ekan. U shunchalik berilib mehnat qilarkanki, to'daning barcha a'zolari to'plagan asalni bir o'zi to'plab qo'ygan emish. Barcha arilar uni olqishlab, g'o'ng'illab o'z tillarida maqtasharmish. Uyqudan uyg'onib, ko'rgan tushi o'ngidan kelishini jon-dili bilan istabdi. Endi uning butun vujudi mehnat tongini orziqib kutayotgan edi. Bu tong kelishiga ozgina fursat qolibdi.

Do'stlarim, o'ylashimecha, siz Sariqbo'yinning bu ishidan albatta to'g'ri xulosa chiqarasiz. Dangasa, o'zbilarmon bo'lish odati juda-juda yomondir.

Mohinur HAYDAROVA,  
Poytaxtimizdagi 165-maktabning 5- «D» sinf o'quvchisi.

Mamlakat Karimova pionino chaladi. Kollejda shu mutaxassislik bo'yicha tahsil oladi. Musiqa bilan she'riyat azaldan bir-biriga uyg'unlashib ketgan san'at turlaridir. Shu tufayli musiqachi she'riyatni ham yaxshi his etishiga shubha yo'q.

Mamlakat pionino chalish bilan birgalikda she'rlar mashq qiladi.

Uning orzulari ko'p. Men uning ana shu orzulari ushaliyini istayman. E'tiboringizga Mamlakatning she'riy mashqlaridan namunalarni havola etmoqdaman.

Rustam MUSURMON, shoir.



## ONA VATAN

Bobolarim qoni to'kilgan tuproq,  
Sen uchun yashayman bu aziz kunda.  
Sen uchun beraman boru budimni,  
Faqat sen omon bo'l, ey ona Vatan.  
Bobolarim sening bag'ringda o'sgan,  
Ota-onam ham murodga yetgan,  
Men ham sening bag'ringda kamol topyapman,  
Faqat sen omon bo'l, ey ona Vatan.  
Bu kun murodimni ko'rsang baxtliman,  
Sen uchun yurakdan xizmat qilaman,  
Bergan non tuzingni albat oqlayman,  
Faqat sen omon bo'l, ey ona Vatan.

## QALDIRG'OCH

Osmon uzra uchgan qaldirg'och,  
Kel, qo'nib o't, bahri-dilim och,  
Bahor zavqin esga solib,  
Dilga yana orzu-havas soch.  
Orziqib kutaman bahor kelishing,  
Orziqib kutaman seni qaytishing,  
Bahor elchisi, boychechak gulning,  
Ochilib turishin, nur ulashishin.  
Qanotlaring oq-qoraligi,  
O'xshaydi o'zbekning do'ppi rangiga.  
Qanot qoqib, erkin uchishing  
O'xshaydi o'zbekning zavqu shavqiga.

## MEN SIZNI ESLAYMAN, ONAJON

Vatandan olisda yashaganimda,  
Do'stlar diydoridan ayrilganimda.  
Mehr-muhabbatni sog'inganimda,  
Men Sizni eslayman, Sizni onajon.  
Ba'zida yig'layman ko'zim to'la yosh,  
Ba'zida o'ksiyman, yolg'izman bebosh.  
Baribir uzoqda yashayman har on,  
Men Sizni eslayman, Sizni onajon.  
Amir Temur bobom sog'inganimda,  
Kumushning sevgisin his qilganimda.  
Navoiy g'azalini tinglaganimda,  
Men sizni eslayman, Sizni onajon.

Mamlakat KARIMOVA.



# MEHR KUCHI

(Boshi 26 yanvar sonida)

(hikoya)

Farhod MUSAJONOV

Qandaydir sehri, ichki qudrati bor ediki, hamma bolalar ham, qizlar ham unga bo'ysunardi. Hatto Qahramon singari «futbol qirollari» ham uning gapini ikkita qilolmasdi.

Shuning uchun Gulchehra hovlida paydo bo'lishi bilan hamma bolalar tipirchilab qolardi. Hozir ham shunday bo'ldi, maqtanchoqlik boshlandi: velosiped minib yurgan To'lqin ikkala qo'lini qo'yvorib ucha boshladi, futbolchilar o'yinga zo'r berishdi, zahirada o'tirgan ikkita o'yinchi kurash tushib ketishdi. Xullas, hamma jon-jahdi bilan o'z kuch va hunarini ko'z-ko'z qilishga urinardi. Maqsad bitta: Gulchehraga yoqish.

-Hoy, qiltiriq, angraymasdan to'pni tepib yubor!- Bu yana Qahramonning ovozi edi.

Ilhomjon rostdan ham Gulchehraga angrayib qolib, oyog'ining tagiga to'p kelib tushganini payqamabdi. Ildam o'rnidan turib, to'pni futbolchilar tomon tepdi. Ammo mo'ljalidan yanglishgani uchun oyog'i to'pning chetiga tegdi, natijada to'p to'g'riga emas, yonga uchdi, arang besh-olti qadam nariga bordi.

-Kuching bormi, tepsangchi yaxshilab!- deb qichqirdi Qahramon norozi ohangda.

Futbolchilar ham, hovlida o'ynab yurgan boshqa bolalar ham, Gulchehra ham - barcha voqeani kuzatib turardi.

Ilhomjon to'pga yaqinlashdi, hammaning ko'z o'ngida sharmanda bo'lishdan uyalib, bu gal to'pni bor kuchi bilan tepdi, yana mo'ljalidan yanglishib oyog'i yerni o'yvordi, to'p o'n qadamcha joyga borib tushdi. Panjalari zirqirab og'rib, bir oyog'ida hakkalab qoldi.

Uni kuzatib turgan hamma bolalar xoxolab kulib yubordilar. Ilhomjonning ko'z o'ngi qorong'ilashib, boshi aylandi, chayqalib ketib ag'darilishiga oz qoldi. Shoshmasdan orqasiga qaytib, kursiga cho'kdi. Eson-omon o'tirib olgani yaxshi bo'ldi, yo'qsa yiqilib tushishi ham hech gap emas edi. Biroz o'tgach sal o'ziga keldi. Doktorlar keskin harakat qilmagin, deb bejiz aytishmas ekan, bu yog'iga ehtiyot bo'lish kerak.

Ilhomjon asta boshini ko'tarib atrofga jovdirab boqdi. Futbolchilar o'yinga tushib ketgan, boshqa bolalar ham o'zlari bilan ovora, haytovur u bilan hech kimning ortiq ishi yo'qdek edi. Faqat hovlining narigi betida turgan Gulchehra Ilhomjon tomonga qarab, dugonalari bilan nimalarnidir so'zlashardi.

Kasal odamning ko'ngli yarimta bo'ladi, o'zini boshqalardan ojiz, xuddi aybdorlardek his etadi, eziladi. Ayniqsa, tengqurlaridan ajrab qolish yomon ta'sir qiladi yosh bolalarga.

Ilhomjon ma'yus tortdi, yo'q, u hech kimdan xafa

emas, faqat Gulchehraning oldida hammaga kulgu bo'lganidan, shunchalik nimjon va madorsizligidan o'ksidi.

Shu damda ko'ngliga g'alati fikr keldi: bir hisobdan o'rgangan kasalxonasi ham yaxshi ekan, u yerda hech kim hech kimning ustidan kulmaydi, kamsitmaydi, hamma teng, hamma bir-biriga hamdard, mehribon. Eng asosiysi, kasallarning orasida o'zingni ojiz, notavon sezmayсан.

Gulchehra ikkita dugonasini ergashtirib Ilhomjon tomon yurdi. «Nahotki mening oldimga kelayotgan bo'lsa,- dahshat bilan o'yladi, Ilhomjon, - mening bor-yo'g'i bir-ikki marta ko'rgan, tanimasa ham kerak, tanisa ham meni nazarga ildarmidi, boshqa bolalarga o'xshab biror narsani qoyil qilolmasam. Yo meni mazax qilish uchun kelyaptimi? Yo'g'-e, Gulchehra unaqa qizlardan emas».

Hademay Gulchehra yetib kelib, Ilhomjonning



## BOBOMIZNI XOTIRLAB...

Navoiy bobomiz nafaqat turkiy, balki jahon adabiyoti osmonida chaqnagan porloq yulduzdirlar. Zahiriddin Muhammad Boburning ular haqida aytgan «Hech kim oncha ko'p va xo'p aytqon emas», degan ta'rifining nechog'li to'g'riligiga maktabimizda o'tkazilgan mushoiramizda yana bir bor amin bo'ldik. Maktabimiz rahbari Kozim aka Agzamov, ustozlarimiz Ma'suda opa Badalova, Dilbar opa Valiyevalarning hikoya va rivoyatlaridan bobomiz haqida bilmaganlarimizni bilib oldik. Men va Mahmudjon Azimov kechaga boshlovchilik qildik. Tadbirimizga juda ko'plab mehmonlar, mahallamiz oqsoqollari tashrif buyurishdi. Ularning orasida mening buvijonim ham bor edilar. Singlim Oxulaning o'qigan g'azalini tinglab, juda xursand bo'lib ketdilar. Maktabdoshlarimiz ijro etgan bobomiz hayotiga oid sahna ko'rinishlari hammaga manzur bo'ldi.

Dilafruzbonu USMONOVA,

Shayxontohur tumanidagi

169 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.

qarshisida to'xtadi, yonida ikkita dugonasi, biri qop-qora va naynov, ikkinchisi baq-baqaloq va o'rta bo'yli.

Gulchehra Ilhomjonga qarab iliq ovozdada so'radi.

-Oting nimaydi seni?

-Ilhomjon,-ovozi nima uchundir sal bo'g'ilib chiqdi,- lekin men seni yaxshi taniyman, Gulchehrasan.

-Men ham seni taniymanu, faqat otingni bilmasdim,- dedi Gulchehra.-Bu yerga ko'chib kelganingga bir yilcha bo'ldi-a?

-Sal oshdi,- dedi Ilhomjon va o'rnidan turdi.

Uning asti ketadigan niyati yo'q, faqat Gulchehra tik

turganida yalpayib o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi.

-Bemalol o'tirib gaplashaver,- dedi kulib Gulchehra, -men o'qituvchi emasman-ku.

Ikkala dugonasi sharaqlab kulib unga jo'r bo'ldi.

-O'tiraverish jonimga tegdi,- Ilhomjon izza bo'lganini yashirish uchun hokisor jilmaydi.

-Nega hovliga kam chiqasan, bolalarga aralashmaysan?

-Nega desang, uyda kam bo'laman.

Ba'zi shilqimlar bo'ladi hamma narsa bilan qiziqaveradigan, har xil nojo'ya savollar berib odamning holi-joniga qo'ymaydi. Gulchehra o'shanaqalardan emas ekan. «Nega uyda kam bo'lasan», deb so'ramadi. Xohlasa o'zi aytar, xohlamasa majburlash kerak emas, degan o'yg'a bordi. Faqat yuz-ko'zida savol alomati paydo bo'ldi.

Buni sezgan Ilhomjon masalaga o'zi oydinlik kiritdi:

-Uyda kam bo'lishimning sababi - umrim kasalxonada o'tadi. Doktorlar vaqti-vaqti bilan uch-to'rt kunga javob berishadi uyimga kelishga, keyin yana qaytib boraman.

-Shunaqa degin,- dedi Gulchehra zig'ircha achinish izhor qilmay xushchaqchaq kayfiyatda.

Mana shu Ilhomjonga juda yoqib tushdi. Yomon ko'rgani kasalni eshitib odamlarning «voy bechora», deb achinishi edi. Shunday paytlarda u o'zini kamsitilgan, ojiz his etardi.

Oldiniga Gulchehraning salobati bosib, Ilhomjon sal iymaniroq, cho'chibroq turgani, ikki-uch og'iz gaplashganlaridan keyin o'zini ancha yengil va erkin his eta boshladi. Ha, bu qiz bilan gaplashish oson edi. Sababi, Gulchehra o'zini o'ta oddiy va samimiy tutardi, jo'raboshiman, deb dimog'- firog' qilmas, odam bilan xuddi o'z tengidek so'zlashardi. Mana shunday munosabatga ichikkan Ilhomjonning dimog'i chog'lashdi.

-Agar sir bo'lmasa, ayt, nima kasalsan o'zi shunaqa uzoq davolashadi?- beparvo ohangda so'radi Gulchehra.

-Bilmayman,- dedi Ilhomjon.

-Doktorlar nima deyishyapti?

-Doktorlarning o'zi hayron, simptomlar har xil bo'lgani uchun aniq diagnoz qo'yisholmayapti.

Gulchehra Ilhomjonni yaxshi tushungan bo'lsa-da, gapni atay qiziqchilikka yo'ydi:

-Nima, simptom dedingmi?

Dugonalari yana xoxolab kulib yuborishdi.

Ilhomjon ham jilmayib iyagini qashidi.

-Meni ham oldin bunaqa so'zlarg'a tishim o'tmasdi. Ammo kasalxonada uzoq yotsang, tibbiy atamalarni suv qilib ichib yuborarkansan, hatto o'zini o'zi davolay oladigan professorga aylanib ketarkansan. Simptom degani- kasallikning belgilari. Shu belgilar noaniq bo'lgani uchun doktorlar bir to'xtamga kelisholmayaptilar,- dedi Ilhomjon,- xullas, mening kasalim hech qanday kasalga o'xshamas emish.

-Zo'r-ku!-zavqlanib xitob qildi Gulchehra.

-Nimasi zo'r?- ajablandi Ilhomjon.

-Odam biror qilg'i bilan boshqalardan ajrab turishi kerak. Eng yomoni xulq-atvorga ega bo'lmagan hashaki odamlar, ular bilan hatto gaplashishning ham qizig'i yo'q, darrov me'daga uradi, birpasda zerikasan.

-Albatta, odam o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgani yaxshi, - deb qizning gapini ma'qulladi Ilhomjon, - lekin men kasal haqida gapiryapman.

-Men ham kasalni nazarda tutib gapiryapman. O'zing g'aroyib bola bo'lganing uchun, kasaling ham hech kimnikiga o'xshamaydigan kasal ekan. Shuning uchun «nima kasalsan?» deb so'rasha, «hech kim bilmaydigan kasalman», deb maqtanib yuraver,- dedi kulib Gulchehra.

-Bo'pti,- dedi Ilhomjon,- unda bugundan boshlab maqtanishga tushaman.

(Davomi bor.)

## CHAK NORISGA O'XSHAGIM KELAR...

Yoshligimdan sportga qiziqaman. Shuning uchun ham Jeki Chan, Bryus Li o'ynagan kinolarni qayta-qayta ko'raman. Ulardek kuchli, botir, yengilmas bo'lishni orzu qilganim uchunmi, ba'zida tushlarimga ham ushbu badiiy filmlar kiradi.

Mendagi bu qiziqishni dadamlar sezib qolib, «Jar» sport kompleksiga olib borganlar. Ustozimiz Nurmuhhammad aka bizga karatedan saboq berdilar. Mashg'ulotlarni qoldirmay qatnab, tez orada sariq va qizil belbog' sohibi bo'ldim. Albatta bu belbog'larni qo'lga kiritish oson bo'lmadi.

Bir kuni mashq qilish bilan ovora bo'lib, ustozimiz yonlariga mehmon kelganidan bexabar qolibmiz. Keyin bilsak, mehmonimiz Chak Noris ekan. Quvonchimiz ichimizga sig'may, u bilan birga suratga tushdik. Mashhur insonlarni yaqindan ko'rish boshqacha bo'lar ekan-da.

Katta bo'lganimda men albatta kuchli bo'lishimga ishonaman. Avvalo ota-onamni, oilamni, o'zimni, qolaversa, barcha mard o'g'lonlardek Vatanimni himoya qilaman.

Fayoz HABIBOV,

Poytaxtdagi Yusuf Mo'minov nomli 274-maktabning 7-sinf o'quvchisi.



Orzu



**Tengdoshlaringiz ijodi**

# OTAJONIM



Tilim chiqib, «dada» dedim,  
Ko'kka yetdi boshingiz.  
Ardoqlayman doim sizni,  
Yuzga kirsin yoshingiz.

Otajonim, mehribonim,  
Ko'ksingizga bosh qo'yay.  
Taftingizdan quvvat olib,  
Mehringizga men to'yay.

Baxtimizga omon bo'ling,  
Siz-la o'tsin har onim.

Bizning suyanch tog'imiz ham,  
O'zingiz otajonim.

**Tohirjon SULTONXO'JAYEV,**  
Poytaxtdagi 113 - maktabning  
3 - «D» sinf o'quvchisi.

## BAHOR

Quyosh kulib boqadi,  
Zarrin nuri yoqadi,  
Tashna dil zavqlanadi,  
Bahor sepin yoyganda.

Qir-adirda qo'zilar,  
Ma'rab o'tga cho'zilar,  
Chuchmomalar suzilar,  
Bahor sepin yoyganda.

Ko'klamdir sevinch fasli,  
Barcha sog'ingan asli,  
Tillarda uning vasfi,  
Bahor sepin yoyganda.

**Kibriyo MAMARASULOVA,**  
Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at  
litseyining o'quvchisi.

## VATAN HAM BO'LMASDI BUNCHALAR AZIZ



Bu juda muqaddas ko'hna guliston,  
Mahliyo boqishin ko'ring oftobning.  
Qutlug' qadam qo'ygan Rustamu Doston,  
O'chmas izlari bor Afrosiyobning.  
Registon, Oqsaroy, arku madrasa,  
Maqbarasi Temur Sohibqironning.  
«Boburnoma»si-yu tabarruk «Xamsa»,  
To hamuz hayratga solar jahonni.  
Mo'tabar ajdodlar joniga payvast-  
Bo'lmas avlodlar mehri chambarchas.  
Vatan ham bo'lmasdi bunchalar aziz,  
Har qarichi bo'lmas edi muqaddas.

**Gulbahor OTAXONOVA,**  
Shahrixon shahridagi Hayratiy nomli  
4 - o'rta maktabning 9 - «D» sinf o'quvchisi.

**Qulog'ingga gapim bor**

# FARHODNI YO'QOTGIM KELMAYAPTI

Biz qishloqda yashaymiz. Onam uy bekasi, meni holiroq joyda to'xtatib: «Chori, o'rtoq, dadam esa oddiy traktorchi. Uyda eng katta onam aytdilarki, sen bilan kamroq farzand men bo'lganim uchun ukalarim va gaplasharkanman, chunki «Kambag'al singillaringga hamma ishda bosh-qoshman. Yon qo'shnimiz Farhod bilan bolalikdan birga o'sganmiz, bitta sinfda o'qiydiz. Biz juda ahil do'st edik... Ammo keyingi paytlar Farhod mendan o'zini olib qochadigan bo'ldi. Uning dadasi Muxtor aka dadam bilan birga traktorchi bo'lib ishlardi. U boshqa ishga o'tib, xususiy do'kon ochdi. Ishlari yurishib ketdi. Boshida o'z shaxsiy mashinasida (maktabimiz ancha olisda joylashgani uchun) Farhod bilan meni maktabga tashlab o'tardi. Keyin esa dadamni aytishlaricha, salomga ham alik olmaydiganlardan bo'lib qoldi. Bolaligidan birga o'sganmiz, Farhodga mehrim tushgani uchunmi, men bunday mayda-chuydalarga e'tibor bermas edim... Faqat bir kuni Farhod



bilan do'stlashsang, kosang oqarmaydi», dedilar, -dedi-yu, oldinda ketayotgan sinfdoshlarimiz tomon yugurib ketdi.  
Men esa taxtadek qotib qolgan edim.  
Nahotki do'stlik boylik bilan o'lgansa? Nima bo'lganda ham, men do'stim Farhodni yo'qotgim kelmayapti. Unga bolalikdan mehr qo'ygandim.. Menga maslahat bering.

Hurmat bilan **Chori NAMOZOV,**  
Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani,  
8-sinf o'quvchisi.  
Uzr, manzilimni to'liq yoza olmadim,  
sababini tushunarsiz.

## TURNALAR

Turnalar, hoy turnalar,  
Qayga uchib ketasiz?  
Ko'kda arg'imchoq solib,  
Qay manzilga yetasiz?

Turnalar, hoy turnalar,  
Oy borib, omon qayting.  
Mendan dugonalarga,  
Sog'inchli salom ayting.

**Shohida JALILOVA,**  
Toshkentdagi Amir Temur nomli  
155-maktabning 2 - sinf o'quvchisi.

## Bo'sh o'tirmay, bosh qotir

Ilm dargohi						Fan					
Fan						Atlas, karta					
		IL Gap bo'lagi				Don mahsuloti Yuklama Aylana	Fan				Fan
Fan											
		Ong Inglizcha "va"				Yer o'lcho'vi Bilimli	Qonunlar Fizik olim				
						Tik					Uy qismi
Yozma ish						... va takdir Nomus Baho				Yoza	
						Tasdiq so'z Ko'rsatish olmoshi	Shaxmatdagi holat			Sanoq	
		Nota Uy hayvoni									Hayvon
						... va yulduzlar	Nota Tovlanish				
Ikkinchi nom										Maydon Sovg'a	

Tuzuvchi: MAS'UDABONU.

Una yuring - olini beshing  
**TONG yulduzi**

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDOAZIMOVA

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Risboy JO'RAYEV,  
Mirakmal MIROLIMOV,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
O'ktam OHUNOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
№ 022 raqam bilan  
2003yil 11 dekabrda  
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir  
«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.  
**Gazeta**  
«Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi  
kompyuter bo'limida  
terib sahilalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.  
Toshkent matbaa  
kombinatida chop etildi.  
Manzil:  
700129  
Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi, 30-uy  
Adadi - 45872  
Buyurtma № J 000014

Gazetani  
Otabek  
ESHCHANOV  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Nosir  
JO'RAYEV

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.  
Obuna indeksi: 198

Bizning elektron  
pochtamiz:  
[ijod@uzpak.uz](mailto:ijod@uzpak.uz)

Tel: 144-63-08  
144-62-34  
Tel./ faks:  
(99871) 144-37-24